

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.13952729>

## “DUNYONING ISHLARI” ASARIDAGI LAQABLARNING LEKSIK-SEMANTIK VA STILISTIK XUSUSIYATLARI

**Havasxon Solixo‘jayeva**

Email: [solihodjayevaxavasxon@gmail.com](mailto:solihodjayevaxavasxon@gmail.com)

f.f.f.d (PhD), dotsent v.b.

**Ismoilova Gulmira**

NamDU 3-kurs talabasi

Email: [gulmiraismoilova04@gmail.com](mailto:gulmiraismoilova04@gmail.com)

**Annotatsiya:** Maqolada O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” asaridagi laqablarning leksik-semantik va stilistik xususiyatlari ochib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** onomastika, antroponim, laqab, ortirilgan ism, xarakterlovchi, leksik-semantik.

Ismlar insonlarning ma’lum bir orzu hayollari, istaklarining mahsulidir. Qaysidir ma’noda ismlar egasining kelajagiga, taqdiriga ta’sir etadi. Shu bois o‘zbek xalqida ism qo‘yish va tanlashga alohida e’tibor qaratiladi. Biroq hayotda shunday orttirilgan nomlar borki, u insonning fe’l-atvori, xulqi, ko‘rinishi, shakl-shamoyilidan kelib chiqib shakllanadi. Bu nomlar onomastikada laqablar deb yuritiladi.

Laqablar yuzasidan tilshunoslikda turli fikr va qarashlarni kuzatish mumkin. Jumladan, A. Pashayev “Laqab shaxs ismiga tirkaladigan qo‘sishimcha nom kishining biror belgisi yoki kasb-hunariga ishora qiladi<sup>1</sup>”. E. Begmatov – “Laqablarning qo‘yilishi doimo real asosga, motivga ega bo‘ladi. Ayniqsa, bu shaxsning jismoniy kamchiligi va xarakter, xatti-harakati bilan bog‘liq laqablarda aniq ko‘rinadi”<sup>2</sup> –deya e’tirof etadi.

<sup>1</sup> Пашаев А. М. Прозвища в озербайджанском языке. С 6

<sup>2</sup> Begmatov E.A. O‘zbek tili antroponimikasi. – Toshkent: Fan, 2013. – 55b.

Darhaqiqat, laqablar kishining ajralib turuvchi muhim belgilari asosida yuzaga kelib ismlarga yondosh sifatida ism bilan birga qo‘llanadi. Shunga ko‘ra, laqablarni orttirilgan nomlar sifatida e’tirof etiladi. Shu jihatiga ko‘ra ismlardan farq qiladi. Chunki laqablar insonning tashqi belgilari, kasb-hunari, jamiyatdagi maqomi va hokazolar orqali beriladi. Yondosh ism sifatida ijobiy yoki salbiyliги bilan ajralib turadi.

Odatda, laqablarga salbiy tushuncha sifatida qaralsada, aslida laqablar yozuvchilar uchun asar qahramonlarini fe’l-atvori va xususiyatlardan darak beruvchi vazifalarni bajaruvchi birlik sifatida qimmatlidir.

Albatta, o‘zbek tilshunosligida laqablarning leksik-semantik, uslubiy xususiyatlarini tadqiqi bo‘yicha ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan muayyan ilmiy izlanishlar olib borilgan. Mazkur asarlarda laqablar – badiiy matnlarda yozuvchi niyatini yuzaga chiqaruvchi vosita sifadida talqin etilgan. Darhaqiqat, ma’lum bir yozuvchi yoki shoirning badiiy mahoratini ular qo‘llagan ism yoki laqablar orqali ko‘rishimiz mumkin.

Jumladan, bu borada benazir nosir, mahoratli va suyukli yozuvchimiz O‘tkir Hoshimov asarlarini ibrat maktabi sifatida e’tirof etish o‘rinlidir.

Maqolada “Dunyoning ishlari” asarida qo‘llangan laqablarning leksik-semantik va stilistik xususiyatlari tahlil qilar ekanmiz. Undagi turli personajlar va ularning hayotiy hikoyalari orqali jamiyatning turli qatlamlari aks ettirilib, berilgan laqablar orqali qahramonlar xarakteri, hayotdagи o‘rni, tana a’zolaridagi nuqsonlarini ifodalovchi muhim unsurlar sifatida lingvostlistik mahorat ila qo‘llanganligini guvohi bo‘ldik. Aslida, laqablar mazkur badiiy matnda ko‘p miqdorni tashkil etmasada o‘zining turli ma’no qirralarini ochib berishi bilan ahamiyatlidir:

No	Laqablar				
1.	<i>Muborak chevar</i>	6.	<i>Ismoil kal</i>	11.	<i>Haydar shamol</i>
2.	<i>Inoy cho ‘loq</i>	7.	<i>Isroil mo ‘ylov</i>	12.	<i>Olim parvoz</i>
3.	<i>Huri satang</i>	8.	<i>Orif shapko ‘r</i>	13.	<i>Mahmud bukur</i>
4.	<i>Hakim naynov</i>	9.	<i>Abdi aravakash</i>		
5.	<i>Naim sartarosh</i>	10.	<i>Yunus chinoq</i>		

Laqablar nutqda qo‘llanilishi, funksional shakliy belgisiga ko‘ra ikki guruhga bo‘linadi:

- atoqli ot sifatida mustaqil qo‘llanuvchi laqablar;
- shaxs ismi bilan birga keluvchi laqablar<sup>1</sup>.

Asarda har ikki guruhga mansub laqablar mayjud bo‘lib, ularni leksik-semantik va stilistik jihatdan quyidagi guruhlarga ajratishimiz mumkin:

### **1. Insonlarning tana a’zolaridagi nuqsonlariga ishora qiluvchi laqablar.**

***Chinoq*** – bu leksemaning asl ma’nosini qulog‘i kesilgan, qulog‘i kemtik ma’nolarini anglatib, badiiy uslubda ham so‘zlashuv nutqida ham qulog‘i kichkina va chandiqli kishilarga nisbatan ishlatiluvchi laqab vazifasini o‘taydi.

O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” asarida mazkur laqabga izoh berilgan o‘rinlarini ham uchratishimiz mumkin:

– *Chinoq ikkovlaring yaxshi jang qilganlaring uchun Maskovga delegat bo‘lib borasan”, desa bo‘ladimi! Yunus chinoq bir qulog‘i yo‘q bo‘lsayam xo‘p azamat yigit edi.*

Mazkur guruhga kiruchi laqab o‘ziga xosligi jihatidan ajralib turadi. Chunki ushbu laqab atoqli ot sifatida mustaqil qo‘llanib, qahramonning tashqi ko‘rinishidagi nuqsonini obrazli tarzda berishda foydalaniladi.

**Kal** – so‘zi sochi to‘kilgan kishilarga nisbatan laqab vazifasida ishlatiladi. Masalan:

–*Bir jo ‘jaxo ‘roz bedanam bor edi desang, o‘zimam Ismoil kaldan bir qo‘yning puliga olgandim.*

Badiiy asarda bu so‘z sochi to‘kilgan so‘z birikmasi o‘rnida ishlatiladi. Demak, yozuvchi asarida ixchamlikka intilgan va tashqi qiyofasini ochib berish uchun *kal* laqabidan foydalangan.

**Cho‘loq** – so‘zi oyog‘i shikastlangan, oqsoq, qo‘li yoki oyog‘i yo‘q va oyog‘i siniq ma’nolari mavjud.

<sup>1</sup> Andaniyozova G. Laqablarning lingvopoetik xususiyatlari // O‘zbek tili va adabiyoti, 2022. – №6. – B.123.

– *Qaysi kuni Inoy cho‘loqning yil oshisida ikkita choynak yo‘qoldi, – dedi u hasrat qilib.*

**Ko‘r** – bu so‘zning asl ma’nosni o‘zbek tilining leksikografik manbalarida, ko‘rish qobiliyati yo‘q, so‘qir tarzida berilgan.

**Bukur** – so‘zi narsa yoki shaxsning qiyshiq, egri yoki bukilgan shaklni ifodalaydi.

*Mahmud bukurning uylari qaysi, o‘rgilay? – dedi onam semiz xotinga iltijoli termilib.*

2. Odamning eng xarakterli xususiyatini ifodalovchi va tashqi belgilariga oid laqablar.

**Satang** – leksemaning asl ma’nosni o‘zbek tilining izohli lug‘atida quyidagicha ifodalangan. Pardoz-andozga, kiyinishga zeb bergen; olifta, bashang.

– *Ho, bo‘yiz yetmagandan keyin puf sassiq bo‘ldimi! – Huri satang sumkasini ko‘tarib shaxdam odimlar bilan jo‘nab ketdi.*

**Mo‘ylov** – so‘zi yuqori labning ustini qoplagan mo‘ylar, murt, mo‘ylov qo‘ygan shaxs.

– *Isroil mo‘ylov hovlidagi qorni kuragan, Sepkilli xola bilan Kelinoyi “voy onamlab” yig‘lashdi...*

**Naynov** – leksemasi bo‘yi baland, novcha insonga nisbatan ishlatilgan.

– *Shunga qaramay, eshitishimcha, endi choyxonada Olim parvoz undoq, Hakim naynov bundoq, menam persanalniy pensiya olishim kerak, degan gaplarni aytmaydigan bo‘libdi.*

**Shamol** – so‘zi ko‘chma ma’noda o‘zgaruvchanlik yoki barqarorlikning yo‘qligini ifodalash uchun ishlatilishi mumkin.

– *Ertasiga uni jinnixonaga olib ketishdi. Haydar shamol bilan dadam birgalashib oborishdi.*

3. Kasb-hunarga asoslanib qo‘llaniladigan laqablar.

**Chevar** – bu so‘z kiyim-bosh yoki kashta tikishga usta ayol, mohir tikuvchi kabi ma’nolarni ifodalaydi.

– *Ovsinim kuyov bo‘lmishning onalari! – Atlas ko‘ylakli ayol jilmaydi.* – **Muborak chevar desangiz, hamma taniydi.** “Zinger” mashinalari bor.

**Sartarosh** – odamlarning soch-soqolini olish bilan shug‘ullanuvchi insonga nisbatan qo‘llanuvchi kasb-korga oid atama.

– *O‘sha yoqdan allanima deb o‘ziga-o‘zi gapirgani eshitildi... Biroq Naim sartaroshning porasi bari bir zimmamda turibdi.*


**Aravakash** – laqabi badiiy asarlarda ot-arava bilan yuk tashuvchi kishilarga nisbatan ishlataladi.

– *Dalavoyning avvalgi xotini Abdi degan aravakashga tegdi.*

**Parvoz** – leksemaning ma’nosi osmonga ko‘tarilish, uchish degan ma’noni anglatadi.

– *Gazetingda mani maqtab chiqarsang, Olim parvozga o‘xshab personalniy pensa oladigan bo‘lsam, soqolingni har kuni o‘zim op qo‘yaman.*

Yozuvchining “Dunyoning ishlari” asaridan keltirilgan misollarni quyidagi jadval orqali ko‘rishimiz mumkin:



Asarda qo‘llangan laqablarning leksik-semantik va stilistik xususiyatlarini quyidagicha belgilashimiz mumkin:

1. Laqablar muallif qahramonlarining individual xususiyatlarini ifodalash uchun xizmat qilgan.

2. Ayrim o‘rinlarda laqablar ism o‘rnida qo‘llangan (murojaat qilingan).
3. Kishilarning kasb-koriga ishora vazifasini bajargan.
4. Qahramonlarning ijobiy yoki salbiy jihatlarini yoritish xususiyatiga ega.

Demak, asardagi laqablar leksik-semantik va stilistik jihatdan chuqur ma’no anglatish, yengil kulgi, hazil-mutoyiba shaklida asar qahramonini chizish va u haqida muhim axborotlarni bilib olish uchun ishlatiladi. Kasb-hunar bilan bog‘liq berilgan ortirilgan ismlar shaxsga maxsus atab qo‘yilgan ismlar bilan birga birikma holatda keladi, inson tana a’zolaridagi biror nuqsonni ifodalovchi so‘zlardan hosil bo‘lgan laqablar ko‘p hollarda asosan qahramon portretini tasvirlashda ixchamlikka erishish uchun badiiy asarlarda qo‘llanilgan. Mazkur laqablarni lingvostilistik jihatdan mahorat maktabi sifatida e’tirof etish mumkin.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. E.A. Begmatov. O‘zbek tili antroponimikasi. – Toshkent: Fan, 2013. – 55b.
2. Пашаен А. М. Прозвища в озербайджанском язмке. С 6.
3. G. Andaniyozova. Laqablarning lingvopoetik xususiyatlari // O‘zbek tili va adabiyoti, 2022. – №6. – B.123.
4. O‘tkir Hoshimov. Dunyoning ishlari qissasi – Toshkent, 2018.